

# **Adiblar xiyobonida “Vatan madhi qalblarda mangu” mavzusida hisobot konserti o’tkazildi**

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshirig’i ijrosini ta’minlash maqsadida Adiblar xiyobonida “Vatan madhi qalblarda mangu” mavzusidagi hisobot konserti bo’lib o’tdi. Ushbu tadbir O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, O’zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti hamkorligida tashkil etildi.


Tadbirni Prezident Administratsiyasi mas’ul xodimi Abdughalil Mavru洛ov, Madaniyat vaziri o’rinbosari Murodjon Majidov, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid hamda O’zDSMI rektori Nodirbek Sayfullayev ochib berib, ushbu badiiy kecha milliy madaniyatimiz va adabiyotimizni yoshlarimizga yetkazishda muhim qadam bo’lishini, atoqli adiblarimizning hayoti va ijodini yoshlarga tanitish, ularni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash oliygohning asosiy maqsadlaridan biri ekanligini ta’kidladi. Shu bilan birga, Adiblar xiyobonini yoshlар uchun doimiy gavjum va fayzli maskanga aylantirish ularni milliy merosimiz bilan tanishtirish hamda talabalarning ma’naviy olamini boyitishga xizmat qilishi aytib o’tildi.

Konsertning asosiy maqsadi atoqli adiblarimiz hayoti va ijodini yoshlар orasida keng targ’ib qilish, ularning merosini abadiylashtirish va xiyobonni yoshlар bilan doimiy gavjum bo’lgan maskanga aylantirishdan iborat. Badiiy kechada institut professor-o’qituvchilari, mashhur xonandalar va iqtidorli talabalar ishtirokida milliy kuy-ko’shiqlar ijro etildi. Shuningdek, O’zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf

qalamiga mansub she'rlar o'qildi va turli sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Tadbir yoshlar uchun katta ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, ularga atoqli adiblarimizning boy merosini yanada yaqinroq tanitish imkonini berdi.

Hisobot konserti Adiblar xiyobonini yoshlar uchun ma'naviy va madaniy maskanga aylantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.





---

# **O'zbekistonda Ozarbayjon Madaniyat vazirligi xodimlari tashrif buyurdi**


So'nggi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtaida madaniy aloqalar sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Ushbu hamkorlikning yorqin namunasi sifatida joriy yilning may oyida Ozarbayjon Respublikasi poytaxti Boku shahrida o'tkazilgan II Turk dunyosi talabalar teatr festivalida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalarining ishtirok etganligini aytish mumkin. Festivalda o'zbekistonlik talabalar munosib qatnashgan holda, hakamlar hay'ati va tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Hamkorlik aloqalarining davomi o'laroq, bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Ozarbayjon Madaniyat vazirligi hamda san'at namoyondalaridan iborat delegatsiya tashrif buyurdi. Ozarbayjon Madaniyat vaziri maslahatchisi Oleg Amirkbekov, vazirlik bo'limi boshlig'i Minzarxanim Nuraliyeva, vazirlik sektori rahbari Aybeniz Aliyeva, Ozarbayjon Kino agentligi xodimi Aysel Muradova, kinorejissyor Ulviya Karimovadan iborat delegatsiya institut faoliyati va dars jarayonlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Ular oliygoh o'quv teatri va anjumanlar zalini ko'zdan kechirishdi hamda talabalarning amaliy mashg'ulotlarida ishtirok etdilar.

Shuningdek, mehmonlar institut rahbariyati bilan uchrashib, madaniyat va san'at sohasidagi istiqbolli hamkorlik masalalari, jumladan, iyun oyida mamlakatimizda tashkil etiladigan Ozarbayjon madaniyat va san'at kunlarini o'tkazish masalalarini muhokama qildilar. Muloqot davomida ikki tomon

o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish, qo'shma loyihalar va dasturlarni amalga oshirish, san'at va madaniyat sohasida o'zaro tajriba almashish imkoniyatlari haqida fikr almashildi. Ozarbayjon Madaniyat vazirligi xodimlari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ta'lim jarayonlari va talabalarning ijodiy ishlariga yuqori baho berishdi.

Mazkur tashrif O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga va yangi qo'shma loyihalar yaratishga katta turtki beradi. Hamkorlik san'at va madaniyat sohasidagi innovatsiyalarni rivojlantirish va ikki mamlakat yosHLariga yangi imkoniyatlar ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.





---

# **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatning alohida e'tiboriga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni tarbiyalash, to'g'ri yo'lga yo'naltarish, kasbga o'rgatish, o'qitish va ish bilan ta'minlash maqsadida ushbu yoshlarni vazirlilik tizimidagi obro'-e'tiborli, katta hayotiy tajribaga ega rahbarlarga biriktirish an'anasi joriy etilgan edi.**

0'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatning alohida e'tiboriga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni tarbiyalash, to'g'ri yo'lga yo'naltarish, kasbga o'rgatish, o'qitish va ish bilan ta'minlash maqsadida ushbu yoshlarni vazirlilik tizimidagi obro'-e'tiborli, katta hayotiy tajribaga ega rahbarlarga biriktirish an'anasi joriy etilgan edi.

Shunga ko'ra, hududlarga biriktirilgan rahbarlarning joylardagi holatni to'laqonli aniqlash maqsadida xonodonma-xonodon yurib o'rganishlari yoshlar o'rtasidagi mavjud muammolarni tezda yechimini topishi muhim vazifa etib belgilandi.


"Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash" yili davlat dasturiga muvofiq, respublikadagi har bir oliy ta'lim muassasasi rektorlariga ijtimoiy himoyaga muhtoj va uyushmagan yoshlar biriktirilgan.

Shu munosabat bilan bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Eldor Shermanov oliygohga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashish maqsadida Sirg'ali tumanida bo'ldi.

Uchrashuv davomida yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlari, ijtimoiy faoliyklarini yanada oshirish, kasbga

yo'naltirish masalalari muhokama qilindi. Yoshlarning muammo va ehtiyojlari o'rganilib, ularga yechim topish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Shu bilan birga, ehtiyojmand oilalarga institut rahbariyati tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari tuhfa etildi.







---

## **O'zbekistondagi delegatsiyasi Kann festivali doirasida Kotd'Azur universiteti faoliyati bilan tanishdi**

Xabaringiz bor, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari va talabalaridan iborat delegatsiya Fransiyaning Kann shahrida o'tkazilayotgan xalqaro kinofestivalda faxriy mehmon sifatida ishtirok etmoqda. Hamyurtlarimiz festival dasturidan o'rinni olgan turli master-klasslarda qatnashmoqda.

Bugun kino, televide niye va radio rejissyorligi kafedrasi mudiri Doston Hojimatov boshchiligidagi delegatsiya Kotd’Azur universiteti faoliyati bilan tanishdi. Tashrif davomida ta’lim tizimi, o’quv yo’nalishlari, dars jarayonlari to’g’risidagi ma’lumotlar bilan tanishildi.

Xususan, kino sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan bir qancha yo'nalishlarning faoliyati o'rganildi.




Jumladan, oliyoh bir qancha xalqaro kinofestivallarda g'olib va sovrindorlar qatoridan o'rinn olgan bakalavriatlarni magistratura bosqichiga imtiyozli ravishda (kontrakt summasining 50 foizini qoplab berish) o'qishga qabul qilishi ma'lum bo'ldi.





Tashrif davomida fransuz universiteti vakillari bilan suhbat o'tkazilib, istiqbolli hamkorlik masalalari muhokama qilindi.





Ma'lumot uchun, tadqiqotlar olib borishga ixtisoslashgan Kotd’Azur universitetida o’ttiz mingdan ortiq talaba tahsil oladi. Ularning yigirma foizini xorijliklar tashkil etadi.

Universitetda Huquq, siyosat, iqtisod va boshqaruv, madaniyat, san'at, ijtimoiy fanlar, tibbiyot, jismoniy tarbiya va boshqa yo'nalishlarga ixtisoslashgan fakultet va kafedralar mavjud.









---

# **O'zbekiston davlat san'atshunoslikning dolzarb masalalariga bag'ishlangan konferensiya o'tkazildi**

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida san'atshunoslik kafedrasi tashabbusi bilan «San'atshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi.

Anjumanni oliygori Nodirbek Sayfullayev ochib berib, har bir sohaning rivoji hamda shakl va mazmun jihatdan boyishi, ushbu sohaning qanchalik keng tadqiq etilishiga ham bog'liq ekanligini, bugungi kunda ta'lim rivojiga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik natijasida sohada bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlarni yanada keng targ'ib etish, ijodkorlarning yangicha qarashlari va intilishlarini yanada sayqallanishida san'atshunoslarning ham alohida mas'uliyati borligini ta'kidlab o'tdi hamda ishtirokchilarga muvaffaqiyat tiladi.

Yalpi majlisda «0'zbekistonda teatr tanqidining muammolari va rivojlanish istiqbollari», «0'zbek teatri: shakllanish bosqichlari va bugungi holati», «Sahna zamon ruhi», «Dramaturg mahoratining shakllanishida jahon adabiyotining o'rni», «Kinoshunoslik fanining dolzarb vazifalari», «Madaniyat va san'at: muammo va yechimlar», «0'zbek Milliy akademik drama teatri sahnasida tarixiy obrazni gavdalantirish ustidagi izlanishlar» va boshqa ko'plab dolzarb mavzular bo'yicha ma'ruzalar o'qilib, keng doirada muhokama qilindi.

Konferensiya so'ngida barcha ishtirokchi tashkilotchilar tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi.











---

# Nodirbek Sayfullayev O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori etib tayinlandi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov raisligida yig'ilish o'tkazildi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga ko'ra, Nodirbek Baxtiyorovich Sayfullayev O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori etib tayinlandi.

Tayinlovga qadar Nodirbek Sayfullayev Prezident Administratsiyasi madaniyat va san'atni rivojlantirish sho'basi mudiri lavozimida faoliyat olib borayotgandi.

*«Avvalambor, shunday ahil jamoa bilan ijobiy yutuqlarga erishish uchun yuksak ishonch bildirgan Muhtaram*


*Prezidentimizga chuqur minnatdorchiligidagi izhor qilmoqchiman.*

*Mana shu dargohda ishlab, yangiliklar qilishni sharaf deb bilaman. Ijodkorlar bilan ishlash insonga boshqacha tuyg'u baxsh etadi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Respublikadagi yagona oliygoh hisoblanadi. Shu bois, bu yerda faoliyat olib borishning ulkan ma'suliyati bor.*

*Oldinda turgan vazifalarimiz bisyor. Bitta inson, bitta rahbar hech narsaga erisha olmaydi. Qachonki yagona maqsad sari birlashar ekanmiz, har qanday muammoni bartaraf etib, g'alabaga erishamiz. Soha bo'yicha malakai kadrlar tayyorlash – eng oliy maqsadimiz. Bu borada fidoyilik bilan, halol va vijdonan ishlashga va'da beraman» – dedi Nodirbek Sayfullayev.*

Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irotboy Sharipov hamda Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov yig'ilishda ishtirok etib, Nodirbek Sayfullayevni tayinlangan yangi mas'uliyatli vazifa bilan tabriklashdi va kelgusi ishlariga omad tilashdi.









---

# **Ramz Qodirov dissertatsiyasi muhokamasi**

2024-yil 31-may kuni soat 10.00 da O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengash asosida Kadirov Ramz Turabovichning 13.00.02 – “Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (san'atshunoslik fanlari)” ixtisosligi bo'yicha “Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish texnologiyalari” mavzusidagi dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengash huzuridagi bir martalik ilmiy seminar bo'lib o'tadi.

**Ilmiy rahbar:** Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich – pedagogika fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori, dotsent.

**Taqrizchilar:** Isakulova Nilufar Janikulovna – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori;

Abdurasulov Shohruh Abdunabiyevich – O'zbekiston Respublikasi FA San'atshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, san'atshunoslik fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori.



# 0'zDSMI delegatsiyasi Kann festivali doirasida xorijiy mamlakat vakillari bilan hamkorlik masalalarini muhokama qildi

Xabaringiz bor, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari va talabalaridan iborat

delegatsiya Fransiyaning Kann shahrida o'tkazilayotgan xalqaro kinofestivalda faxriy mehmon sifatida ishtirok etmoqda. Hamyurtlarimiz festival dasturidan o'rin olgan turli master-klasslarda qatnashmoqda.

Bugun delegatsiya navbatdagi mahorat darsida ishtirok etib, «VoxAfrika» telekanali, «Shcherbina film production», «All Right Entertainment animatsion», «Qirg'iz cinema» kabi studiya vakillari bilan hamkorlik masalalarini muhokama qildi.

Jumladan, «VoxAfrika» telekanali operatori birinchi televizor ixtiro qilingan O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi yuqori ekanligini ta'kidlab, institutimiz bilan hamkorlik qilishdan mammunligini bildirdi. Shu bilan birga, institut xodimlari «Taksi» filmi bosh qahramoni Sami Naseri bilan muloqot olib bordi.

Ertangi tadbirlar doirasida Kann shahridagi kinoga ixtisoslashtirilgan maktablarga sayohat tashkil etilishi rejalashtirilgan.



